HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

WAYS TO DEVELOP VERBAL COMPETENCIES

Rustamova Dilfuzakhon Vohidjon qizi
Teacher of the Department of Education of Kokand University
rustamovadilfuza7755@gmail.com

Annotation. This article covers the essence of verbal competence, its components and importance in the educational process. Also, effective ways to develop verbal competencies in students and future teachers, the role of classes organized on the basis of modern pedagogical technologies, interactive methods and a communicative approach are scientifically and theoretically analyzed. Through the development of verbal competence, opportunities for improving students' oral and written speech, critical thinking, communication culture and social activity are revealed.

Keywords: Verbal competence, communicative competence, oral speech, written speech, speech culture, reading literacy, interactive methods, communicative approach, educational technologies, pedagogical competence.

Bugungi globallashuv va axborotlashuv davrida insonning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi ko‘p jihatdan uning muloqot qila olish qobiliyatiga bog‘liq. Bilish nazariyasiga ko‘ra analitik-sintetik ishlar yordamida til ustida kuzatishdan um umiy xulosa chiqarishga, nazariy ta’rif va qoidaga, shular asosida yana og‘zaki va yozma tarzdagi nutqiy aloqaga, to‘g‘ri yozuv va to‘g‘ri talaffuzga o‘tiladi. O’quvchilar jonli nutqiy aloqaga to‘g‘ri talaffuz va to‘g‘ri yozuvni elem entar nazariy m a’lum otlar asosida amaliy egallash orqali kirishadilar. Ular til materiallarini kuzatish, tahlil qilish orqali elem entar nazariy qoidalar chiqaradilar, o’rgangan va o'zlashtirilgan nazariy qoidalarni amaliyotga ongli ravishda tatbiq etadilar.[1] Shu sababli zamonaviy ta’lim tizimida nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. O‘quvchining o‘z fikrini ravon, mantiqiy va ta’sirchan ifoda etishi, boshqalar fikrini tushunishi hamda samarali muloqotga kirisha olishi uning shaxs sifatida shakllanishida muhim o‘rin tutadi.

Ta’lim jarayonida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish nafaqat ona tili va adabiyot fanlarining, balki barcha o‘quv fanlarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki har qanday bilimni egallash va amaliyotda qo‘llash nutqiy faoliyat bilan chambarchas bog‘liqdir.

Nutqiy kompetensiya shaxsning til vositalaridan samarali foydalanish, fikrni aniq va mantiqiy ifodalash, muloqot jarayonida nutq madaniyatiga amal qilish hamda turli kommunikativ vaziyatlarda mos nutqiy strategiyalarni qo‘llay olish qobiliyatidir. Nutqiy kompetensiya quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: tinglab tushunish kompetensiyasi, o‘qib tushunish kompetensiyasi, og‘zaki nutq kompetensiyasi, yozma nutq kompetensiyasi, kommunikativ kompetensiya. Mazkur komponentlarning uyg‘un rivojlanishi shaxsning umumiy kommunikativ salohiyatini belgilaydi.

Nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish o‘quvchilarning intellektual, ijtimoiy va ma’naviy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Yaxshi rivojlangan nutq: fikrlash faoliyatini faollashtiradi, bilimlarni samarali o‘zlashtirishga yordam beradi, ijtimoiy moslashuvni ta’minlaydi, ijodiy fikrlashni rivojlantiradi, tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Psixolog va pedagog olimlarning tadqiqotlari nutqning rivojlanishi tafakkur rivoji bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi. Shu sababli ta’lim jarayonida nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishga tizimli yondashuv zarur.

Og‘zaki nutqni rivojlantirish nutqiy kompetensiyani shakllantirishning eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. O‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirish uchun quyidagi usullardan

[1] Qosimova K., Matjonov S., G‘ulomova X. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2021. 6-b.

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

foydalanish mumkin: suhbat va munozaralar tashkil etish, savol-javob metodidan foydalanish, rolli o‘yinlar o‘tkazish, taqdimotlar tayyorlash, hikoya va matnlarni qayta so‘zlatish. Mazkur faoliyatlar o‘quvchilarning fikrini erkin ifodalash, nutq boyligini oshirish va muloqot madaniyatini shakllantirishga yordam beradi.[2]

Gapirish nutq faoliyatining turi sifatida mustaqil, yakka o‘zi qo‘llanmaydi, aksincha, boshqa nutq faoliyatlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bir- birini to‘ldirishga xizmat qiladi. O‘qish va yozish faoliyatlari orqali olingan bilimlardan tinglab tushunish va gapirishda samarali foydalaniladi. O‘qish faoliyati axborot- ma’lumot olish, dunyoqarashni kengaytirish hamda so‘z boyligini ko‘paytirib borishda ahamiyati nihoyatda katta. Qayd etilganidek, o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitishda o‘quvchilar og‘zaki talaffuz me’yorlarini shakllantirish ustida ishlashga, ayniqsa boshlang‘ich sinflarda ko‘p e’tibor qaratish kerak bo‘ladi. Biroq o‘zga tilli o‘quvchilarda o‘zbek tildagi nutq tovushlarini to‘g‘ri talaffuz qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda faqat tinglab tushunishning o‘zi mutlaqo yetarli emas.

Tinglash va tushunish bir vaqtda sodir bo‘ladigan jarayon bo‘lib, mazmunni anglab olish uchun o‘quvchi leksik va grammatik bilimlarga ega bo‘lishi talab etiladi, ushbu bilimlar esa o‘qish va yozish orqali sodir bo‘ladi. Bu jarayonda o‘qishning amaliy ahamiyati katta bo‘lib, xususan, “Alifbo”ni o‘rganish bosqichida o‘quvchilar har bir nutq tovushining bosh va kichik harf shakli, harflarning bosma va yozma shakllari bilan tanishtiriladi.Aynan shu bosqichda o‘quvchilarda tovushlarning harfiy belgilarini tanish, harflarni va so‘zlarni o‘qituvchi bilan birgalikda talaffuz qilish, nutq tovushlarining katta va kichik shakllarini yozish, yakka holda va so‘z ichida bir-biriga qo‘shib o‘qish ko‘nikmalari shakllantiriladi. Bu jarayonda o‘qishning amaliy ahamiyati juda katta bo‘lib, o‘quvchilar aynan o‘qish vositasida harflarni to‘g‘ri va bir-biriga qo‘shib talaffuz qilishni o‘rganadilar.

Metodist olim R.Yo‘ldoshev o‘zbek tili darslarida o‘quvchilarda so‘z va so‘z shakllarini xato talaffuz qilish, so‘z urg‘usini noto‘g‘ri qo‘yish, so‘zlami sintagmalarga birlashtirib aytish ko‘ nikmalarini shakllantirishga jiddiy e’tibor qaratilmasligi yakuniy natijada gapirish ko‘nikmalarining yaxshi rivojlanishiga katta to‘siq bo‘lib kelayotganini alohida ta’kidlaydi. Matn ustida ishlash bosqichida rusiyzabon o‘quvchilar matndagi so‘z va so‘z shakllarini talaffuz xatolari bilan o‘qiganlarida, ba’zi tovushlar talaffuzida xatolarga yo‘l qo‘yganlarida o‘qituvchi bu holatdan xulosa chiqarib, darhol o‘qish texnikasini o‘rgatish topshiriqlari ustida ishlamasligi, bunga dars vaqti ham imkon bermasligi tufayli talaffuz xatolari o‘quvchilar nutqiga ketganligi keyinchalik talaffuz xatolarini tuzatish uchun katta kuch sarflashga to‘g‘ri kelishini uqtiradi. Uning fikricha, talaffuz xatolari ayrim tovushlar talaffuzi ustida yetarli ish olib borilmasligi tufayli barqarorlashadi. Chunki o‘zbek tili darslarida, odatda, yangi tovush qat-nashgan so‘zlar o‘quvchilarga bir sidra ayttiriladi, xolos.

Bilish faoliyatini jonlantirish faqat bilimlami o‘zlashtirish jarayonini yaxshilashgagina emas, balki shaxsning eng muhim sifati bolgan faollik va mustaqillikning shakllanganligiga ham yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur.[3]Boshlang‘ich ta’limda so‘zlarni va so‘zlar tarkibidagi nutq tovushlarini to‘g‘ri o‘qish orqali talaffuz qilish ko‘nikmalarini shakllantirish asosiy talablardan biri sifatida qo‘yilishi kerak. To‘g‘ri o‘qish to‘g‘ri talaffuz ko‘nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi. Aynan ushbu til ko‘nikmalarining mustahkam shakllantirilmaganligi oqibatida bugungi kunda o‘zga tilli maktab-larda tahsil olgan o‘quvchilarning talaffuzidagi xatolar hatto oliy ta’lim bosqichida ham davom etayotganini ta’kidlash mumkin.

---

[2] Rustamova D. / Nutqiy kompetensiyalar. O’quv qo’llanma. Farg‘ona. Classic. 2025-y. 68-b.

[3] Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.34-b.

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

O‘qishning hijjalab o‘qish, ya’ni bo‘g‘inlarga ajratib o‘qish, ichida o‘qish, ovoz chiqarib o‘qish, ifodali o‘qish, jo‘r bo‘lib o‘qish kabi turlari mavjud bo‘lib, ular o‘quvchilarga bosqichmabosqich singdirib boriladi. O‘qish faoliyatining ilk bosqichi, albatta, o‘rgani-layotgan til alifbosidagi harflarni yakka holida to‘g‘ri talaffuz me’yorlariga rioya qilgan holda bo‘lib, o‘qituvchi har bir o‘quvchiga harflarni yakkamayakka o‘qitish,shuningdek, butun sinf jamoasiga birgalikda talaffuz qildirish orqali nutq tovushlarini og‘zaki talaffuz qilish ko‘nikmalarini shakllantirib boradi. Shakllantirilgan ko‘nikmalar harflarning yozma shakllarini yozdirish orqali mustahkamlab boriladi.

O‘qishga o‘rgatishning ilk davrida harflarni ayrim holda to‘g‘ri o‘qish va birbiriga qo‘shgan holda bo‘g‘inlab o‘qish, keyin esa astasekin so‘zga birlashtirib o‘qishga alohida e’tibor qaratilsa, keyingi bosqichlarda o‘qish tezligini tezlashtirish, so‘z urg‘usini to‘g‘ri qo‘ygan holda va to‘xtamlarga to‘g‘ri rioya qilgan holda ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirib borishga e’tibor qaratiladi. Ko‘nikmalarni shakllantirishning dastlabki bosqichida tezlik nazarda tutilmasligi, e’tiborni aynan to‘g‘ri o‘qishga qaratish kerak bo‘ladi. Keyingi bosqichlarda esa bo‘g‘inlarni birbiriga qo‘shish jarayonini asta-sekin tezlashtirib borish orqali o‘quvchilarda so‘zlarni yaxlit holda o‘qish ko‘nikmasi shakllantiriladi. O‘qish jarayonida tezlikni oshirib borish gapirish ko‘nikmasining shakllanishiga ham yordam beradi. Shu bois o‘qish darslarida so‘z birikmalari va gaplarni, kichik matnlarni o‘qish jarayonida bo‘g‘inlab o‘qish usuli samara bermaydi.O‘qish ko‘nikmasini shu tarzda shakllantirib borish matnlar tarkibidagi spetsifik nutq tovushlari va yangi so‘zlar talaffuzi ustida muntazam ish olib borish imkonini beradi. Xususan, til o‘rganishning boshlang‘ich bosqichida beriladigan bo‘g‘inlarga ajratib o‘qish, hijjalab o‘qish, ovoz chiqarib o‘qish aynan to‘g‘ri talaffuz me’yorlarini mustahkamlash va o‘quvchilar nutqiga singdirib borilishiga qaratilgan. Bunday topshiriqlarda bir xil tovushlar takrorlangan bo‘g‘inlar va so‘zlardan foydalanish (masalan, *bo-bo, mo-mo, da-da, chip-chip, taq-taq* kabi). Ushbu topshiriqlar, odatda, o‘qing, diqqat bilan o‘qing, o‘qing va so‘zlab bering, o‘qing. ajratilgan so‘zlarga e’tibor bering, ifodali o‘qing kabilardan iborat bo‘lib, o‘qish ko‘nikmasi bo‘yicha:

Ifodali o‘qish paytida odatda urg‘u, intonatsiya, gaplarni sintagmalarga ajratib talaffuz qilishga ko‘proq e’tibor beriladi. Ovoz chiqarmay o‘qish paytida so‘z va gaplar ichida talaffuz qilib boriladi, shu bois ba’zan so‘z va gaplarning noto‘g‘ri talaffuzi singib qolishi mumkin. Chunki matnni ovoz chiqarmay o‘qish paytida so‘z va gaplar ichda talaffuz qilib boriladi. Bunday vaziyatda ba’zi so‘zlar va gaplarning noto‘g‘ri talaffuzi singib qolishi mumkin. Shu bois R.Yo‘ldoshev ta’kidlaganidek, matnni bir vaqtning o‘zida ham eshitib, ham o‘qib, mazmunini qayta so‘zlash o‘quvchilaning talaffuz ko‘nikmalarini tekshirib borish, matnning mazmunini so‘zlashga tayyorlash imkonini beradi. Bunda o‘qilgan matn mazmunini qayta so‘zlatish matnning talaffuzi va intonatsiyasi o‘zlashgandan keyin o‘tkazilishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish zamonaviy ta’limning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Nutqiy kompetensiya shaxsning muloqotga kirishishi, bilimlarni o‘zlashtirishi va ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishining muhim omilidir. Og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirish, o‘qish savodxonligini shakllantirish, interaktiv metodlar va raqamli texnologiyalardan foydalanish nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishning samarali yo‘llari hisoblanadi. Shu sababli ta’lim jarayonida nutqiy faoliyatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan metod va texnologiyalarni keng qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2021.
2. Rustamova D. / Nutqiy kompetensiyalar. O'quv qo'llanma. Farg'ona. Classic. 2025-y. 68-b.
3. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. 34-b.